

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O.O‘RINOVA

**“O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANIDAN TA‘LIM
TEXNOLOGIYASINING QO‘LLANISH USULLARI”**

ҚАРШИ – 2016

“O‘zbek dialektologiyasi” fanini o‘qitishda uzviylik va izchillikni ta’minlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish, ilm-fan, xususan, tilshunoslik sohasidagi yangiliklarni ularda aks ettirish, bugungi va istiqboldagi vazifalarni yoritish, mustaqil ta’lim, o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni taqoza etadi.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarida 5220100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistrлари, akademik litsey, kollej hamda o‘rta maktablarning ona tilidan dars beruvchi o‘qituvchilar ham foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir

Enazarov T.J.

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Ibragimova Z.Y.

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Markayev K.SH.

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qarshi davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2016 yil 23 martdagi 4- sonli bayonnomasi hamda Ilmiy kengashining 2016 yil 31 may 10- sonli bayonnomasi yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

So‘zboshi

Mamlakatimiz ta’lim tizimida dars jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan unumli foydalanish yuqori samaradorlikka erishishga zamin hozirlaydi. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Agarki biz XXI asrda, tobora avj olayotgan globallasuv jarayonlari, Internet va intellektual taraqqiyot hal qiluvchi rol o‘ynayotgan bir davrda yashayotganimizni hisobga oladigan bo‘lsak, hayotimiz naqadar shiddatli sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotganini, ayniqsa, chuqur his qilamiz”¹. Demak, zamon bilan hamnafas bo‘lish, ayniqsa, pedagogik kadrlar zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi.

Gumanitar (filologiya va tillarni o‘qitish, tillar bo‘yicha) fanlarni o‘qitish ta’lim-tarbiya birligiga asoslanib, ushbu fanlar o‘sib kelayotgan yosh avlodda siyosiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy fazilatlarini, yuksak ong va madaniyatni shakllantiradi. Demak, yosh avlod, bo‘lajak mutaxassislarning, umuman, millatning qanday siyosiy, g‘oyaviy, axloqiy, g‘oyaviy tamoyillar asosida yashashi va mehnat qilishi bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi samaradorligiga bevosita bog‘liq.

O‘zbek adabiy tilining fan va texnika tili, rasmiy-idoraviy til, radio va televideniye tili, ko‘p tarmoqli matbuot va yuksak darajadagi rivojlangan badiiy adabiyot tili sifidagi ijtimoiy funksiyalari hamda xususiyatlari mohiyat talqinda ilmiy o‘rganilishi, o‘zbek adabiy tilining lingvistik qonuniyatlari, uning leksik, semantik, grammatik strukturasi, stilistik sistemasi, alifbo va orfografiyasini, shuningdek, boy tarixini yangicha qarashlar asosida tadqiq etish zarur.

Tilshunoslikni o‘qitishda uzviylik va izchillikni ta’minlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish, ilm-fan, xususan, dialektologiya sohasidagi yangiliklarni ularda aks ettirish, bugungi va istiqboldagi vazifalarni yoritish, mustaqil ta’lim, o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni taqoza etadi.

¹ Каримов И. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир // — Тошкент : Ўзбекистон, 2015., 14-б.

“O‘zbek dialektologiyasi” fanini o‘qitish borasida milliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, fanlarning namunaviy o‘quv dasturlarini takomillashtirish va ular asosida ma’ruza matnlari, yangi avlod o‘quv adabiyotlari, elektron adabiyotlarni yaratish va ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

O‘quv fanlari bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o‘z navbatida, magistrant talabalarning mazkur fan bo‘yicha bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlarining asosiy omili bo‘lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Ayni shunday sa’y-harakatlar amalga oshirilishi ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tatbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o‘qituvchilarni ilg‘or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini chuqur o‘rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta’lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Adabiy tilning xususiyat va normalarini tadqiq etish, adabiy tilning normalarini shakllantirish va bu normalarning umumxalq nutqiga singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiy tili sohasida olib borilgan tadqiqotlarga nazar solinsa, tadqiqotchilarning asosan, yozma nutq matnlari asosida tahlillarni amalga oshiradilar. Adabiy tilning og‘zaki shakli, ya’ni jonli adabiy nutqi hozirga qadar kam tadqiq qilingan. Shu ma’noda xalqning kundalik adabiy so‘zlashuv nutqini, shuningdek, radio va televideniye nutqini, sahna nutqini, o‘zbek intellengensiyasining kundalik og‘zaki nutqini, til amaliyotini ilmiy o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish yosh tilshunos olimlar, magistrantlarning alohida diqqat e’tiborida bo‘lmog‘i lozim.

I bob. “O‘zbek dialektologiyasi”da shevalarning o‘rganilish darajasi

Shevalarni o‘rganish – xalq tarixi, etnik-madaniy hayotini tadqiq etish uchun qimmatli materiallar beradi. Sababi jonli xalq shevalari adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan qadimiy manbadir. Xalq shevalarini o‘z vaqtida va atroflicha o‘rganmas ekanmiz, davr o‘tishi bilan undagi noyob so‘zlar iste’moldan chiqadi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «...ular milliy davlatchiligimiz istiqbolini belgilashda, ko‘p asrlik beqiyos ma’naviy-tarixiy merosimiz, madaniyatimiz, dinu tilimiz va muqaddas urf-odatlarimizning yanada qad rostlashida muhim omil vazifasini bajaradi»². Shuning uchun xalq shevalarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, har bir tilning o‘rganilish darajasi uning ichki qonuniyatlarini bilish, tilning shevalarini tavsiflash, ularda saqlanib kelayotgan til boyliklarini aniqlash, shevalar bilan adabiy til orasidagi aloqalarni o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir. Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek shevalari o‘zbek milliy tilining bir tarmog‘i bo‘lishi bilan birga adabiy til va barcha o‘zbek shevalariga xos bo‘lgan umumiy leksik qatlamga ham ega. Shuningdek, o‘zbek shevalarida yana o‘ziga xos leksik guruhlar ham borki, ular shu sheva vakillarining moddiy hayot sharoitlari, shu sheva joylashgan hududning iqtisodiy rivoji bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, hayotdagi barcha narsalar, yangidan vujudga kelgan, paydo bo‘lgan har qanday voqea-hodisalar eng avvalo tilning leksikasida o‘z ifodasini topadi. Shu bois ham leksika tilning boshqa sathlariga qaraganda murakkab va ko‘p qirralidir. Uning vazifasi, bir tomondan, jamiyat yashayotgan borliqni barcha murakkabliklari bilan in’ikos etish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, unda tilning leksik-semantik, uslubiy, so‘z yasash va shu kabi bir qator murakkab lisoniy hodisalari, ularning o‘zaro munosabatlari o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tilshunosligida o‘zbek shevalari leksikasi alohida innovatsion texnologiyalar asosida tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Zero, o‘zbek shevalari leksikasi o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarga boy bo‘lib, lug‘at tarkibida ko‘p sonli dialektal belgilarning mavjudligi bilan bir-biridan farqlanib

² Каримов И.А. Халоллик ва фидойилик – фаолиятимизнинг асосий мезони бўлсин. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – 3-б.

turadi. Shu sababli ham ushbu shevalar leksikasini barcha lisoniy yoʻnalishlar boʻyicha tavsif va tadqiq qilish, ayniqsa, ularni qiyosiy-tarixiy va lisoniy-jugʻrofiy usullarda tahlil qilish nihoyatda dolzarbdir. Bunday innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil qilish natijasida oʻzbek shevashunosligi, oʻzbek tili tarixi, balki turkiyshunoslik fani uchun ham qimmatli materiallar talabalarda koʻnikma va malakalar hosil qilishi shubhasiz. Bugungi kunda xalq tilidagi dialektal xususiyatlar shevalarning oʻzaro aloqasi, adabiy til va turli madaniy-maʼrifiy muassasalarning taʼsiri natijasida kamayib, shevalar oʻrtasidagi oʻziga xos farqlar tekislanib, adabiy tilga singib borayotgan jarayonda shevalarning boy lisoniy boyliklarini - adabiy tilda uchramaydigan soʻzlarni toʻplash, ularni saqlab qolish hamda ularning adabiy til mulkiga aylanishiga koʻmaklashish zarurligi bugungi kun muammolaridan biri sanaladi.

Oʻzbek shevalari leksikasini oʻrganishda Sh.Shoabdurahmonov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, B.Joʻrayev, M.Mirzayev, A.Shermatov, X.Doniyorov, O.Madrahimov, T.Sodiqov, O.Toʻraqulov kabi olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Ular oʻzlarining tadqiqotlari bilan mustaqil ilmiy yoʻnalish - oʻzbek shevashunosligining paydo boʻlish va rivojlanishiga asos yaratishdi³.

Keyingi yillarda oʻzbek shevalarining lugʻaviy xususiyatlari N.Shoyimova, M.Begaliyev, R.Yoʻldoshevlarning monografik tadqiqotlarida oʻrganildi⁴.

Oʻzbek shevalari leksikasining leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy va lisoniy-jugʻrofiy usullarda tadqiq qilish oʻzbek dialektologiyasining baʼzi muammoli tomonlarini hal qilish, uni yangi nazariy maʼlumotlar bilan toʻldirishga yordam beradi. Tadqiq qilinayotgan shevalarning fonetik, grammatik va leksik

³ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари: Филол. фанлари д-ри ... дис. – Т., 1963. – 483 б.; Иброҳимов С. Ўзбек тилининг касб-хунар лексикаси (Фарғона шеваларининг материаллари асосида): Филол. фанлари д-ри ... дис. – Т., 1960. – 471 б.; Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Т.: Ўзакадемнашр, 1968. – 347 б.; Жўраев Б. Юқори Қашқадарё шевалари. – Т., 1969. – 168 б.; Шерматов А. Проблемы исторического развития и современного функционирования узбекских диалектов (по материалам говоров Низовья Кашкадарьи): Дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1978. – С. 339; Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т., 1979. – 158 б.; Содиков Т. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатиға кўра турлари // ўзбек шевалари лексикаси. – Т., 1991. – 86-119-бетлар; Турақулов А. Лексика кокандской группы говоров: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1972. – 21 с.

⁴ Шойимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. – Қарши, 2000. – 121 б.; Бегалиев М. Ўзбек тили Қорабулоқ шеvasи лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т., 2002. – 26 б.; Йўлдошев Р. Тошхóвuz вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди дис. ... автореф. – Т., 2002. – 22 б.

xususiyatlarini o'rganish, uni boshqa o'zbek shevalari, til tarixi, shuningdek, ba'zi qardosh tillar shevalari bilan qiyoslash nafaqat o'zbek dialektologiyasi uchun, balki umumturkiy tillar dialektologiyasining ba'zi munozarali hamda dolzarb nazariy masalalarini hal qilish uchun muayyan qimmatga egadir. O'zbek shevalarining lisoniy xaritalari shevalar lug'aviy birliklari funksional belgilarining tarqalish areallarini belgilashga, shevalararo hududiy farqlarni belgilashga, shuningdek, hudud tilining boshqa o'zbek shevalari bilan munosabatini aniqlashga, ichki tasnifini berishga xizmat qiladi hamda «O'zbek xalq shevalari atlasini»ni mukammallashtirish va to'ldirishga asos bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'zbek shevalarining lisoniy atlasini yaratish nafaqat o'zbek tilshunosligining, balki umumturkiyshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki dialektologik atlas til hodisalarining turkiy tillararo hududiy tarqalishi va til tarixiy taraqqiyotining ba'zi chigal masalalarini hal qilishga imkon beradi. Bunday ilmiy izlanishlarning yana muhim bir tomoni borki, ular o'zbek adabiy tilining lug'aviy me'yorlarini belgilash, turli sohalarning ilmiy terminologiyasini tartibga solib, tilning imloviy va orfoepik qoidalarini takomillashtirish kabi masalalarni hal etishda yordam beradi. Shuningdek, o'rganilayotgan hudud etnografiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma muayyan amaliy qimmatga ega bo'lib, uning materiallari oliy o'quv yurtlari, o'rta maktab, litsey va kollejlarda uchun yozilajak darslik hamda qo'llanmalarni yangi ilmiy fikrlar va lisoniy dalillar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bizning ajdodlarimiz, xalqimiz qadim-qadimdan o'troq yashagan, millatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan»⁵. Haqiqatdan ham, O'zbekiston hududida yashayotgan aholi qadim-qadimdan hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanib kelgan xalqning avlodlaridir. Shu bilan birga mamlakatimizga turli tarixiy sabablarga ko'ra kelib qolgan turkiy va turkiylashgan ko'chmanchi urug' va qabila vakillari qo'shilgan.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - 70-74-бетлар.

Yerli aholining bergan ma'lumotlariga qaraganda, o'zbeklarning qo'ng'iroq, kenagas, mang'it, toma, qipchoq (tor ma'noda), meton (muytan), burqut, xitoy (qitay), xo'ja, bahrin, qora mang'itlar, qalmoq, misit, said, bek, eshon, qutchi, qirg'iz, esaru, qoraqalpoq, esavoy, galavur, mo'g'ul, g'ubombor, movri, qoracha, g'ulon, maxsim, jaloir, nayman, arg'un, turkman, kapa, taxchi, g'ulom, aymoq, eroni, qorluq, kal, qalmoq kabi ko'pgina urug' va qabila nomlari saqlangan. Bu urug'-qabila nomlarining ko'pchiligi hozirgi kunda qoraqalpoq, qozoq, tatar, no'g'ay, qirg'iz, boshqird, turkman va boshqa turkiy xalqlar etnik tarkibida ham uchraydi. Bunday bo'lishi tabiiy. Chunki ko'pgina turkiy xalqlarning shakllanishida ham bu urug'-qabilalarning ishtirok etganligi ma'lum. Bu haqda tarixiy manbalarda ham qayd etilgan. «Demak, mang'it, qo'ng'iroq, qiyot, qipchoq, xitoy, qangli, durmon, kenagas, saroy, ming, qirq, yuz, loqay, qo'shchi, nayman, chimboy, shunqarli, qovchin, chiroyli, iyjon, galaur, bayri, arg'in, barqut, barlos, jaloir, qarluq, nukus, uyshin, o'tarchi, qatag'on, kulan, arlat, qushoyoqli, buyruk kabi etnoslar o'zbek va O'rta Osiyoda yashovchi boshqa turkiy elatlarning xalq sifatida shakllanishida ishtirok etgan muhim komponent hisoblanadi»⁶. Turkiy tillar orasidagi o'xshashlik tasodifiy hodisa emas, bu ularning tarixiy ildizlari bir manbaga ega ekanligidandir. Ma'lumki, barcha turkiy tillar uch yirik til birligi (qarluq, o'g'uz, qipchoq) asosida guruhlanadi. Har bir turkiy respublika qariyb shu til birliklari asosida chegaralangan. Ammo O'zbekiston o'zining ko'p sheva va dialektlarga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlarning o'ziyoq bugungi o'zbek tilining xilma-xil lahjalar asosida vujudga kelganini tasdiqlaydi. Bular qarluq-chigil-uyg'ur, o'g'uz, qipchoq lahjalaridir. O'zbek tili bu lahjalarning hammasi bilan uzviy aloqada bo'lib, o'z lug'at tarkibini boyitib kelgan. O'zbek tilida so'zlashuvchi aholi o'tmishda turkiy qabilalar, qavmlar, elatlar bilan birga, turkiy bo'lmagan etnik guruhlar bilan ham yaqin munosabatda bo'lgan. Turli iqtisodiy va madaniy aloqalar, bir hududda qo'shni yoki ba'zan aralash holda yashash jarayonining sodir bo'lishi o'zbek shevalarining turli-tuman bo'lishiga olib keldi.

⁶ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. - Т.: Ўқитувчи, 1994. - 79-бет.

Hatto tilning fonetik strukturasi ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shuningdek, u tillardan so'zlar o'zlashdi.

Hozirgi o'zbek tili va shevalari leksikasining turkiy asoslari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Qadimiy turkiy leksik qatlamga o'sha davr tili lug'at tarkibida mavjud bo'lgan so'zlar yig'indisi kiradi. Qadimiy turkiy leksikaning asosiy negizini tashkil etuvchi, eng faol so'zlar barcha turkiy tillar leksikasi uchun umumiydir. Hozirda bu so'zlar har bir turkiy tilning leksik boyligini tashkil etadi.

O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalarida bo'lganidek, shevalaridagi o'z qatlamga oid so'zlarni qadimgi turkiy yozma manbalarda uchrovchi mushtarak leksik birliklar bilan taqqoslash, qiyos etish ishonchli ilmiy xulosalar chiqarishga ko'maklashadi. Shu bois ham o'z qatlamga oid so'zlarni belgilashda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» va A.K.Borovkovning «XII-XIII asr O'rta Osiyo tafsiri leksikasi» kabi asarlar bilan chog'ishtirib o'rganildi.


“O'zbek dialektologiyasi” fanini o'qitishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish, fan yuzasidan elektron o'quv moduli ishlanmasini shakllantirish hamda o'qitishni takomillashtirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'quv uslubiy qo'llanma maqsadidan kelib chiqib **quyidagi vazifalar belgilab olindi:**

- oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan “O'zbek dialektologiyasi” fani taraqqiyotining ustivor yo'nalishlarini nazariy va amaliy tahlil qilish;
- “O'zbek dialektologiyasi” fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llarini yoritish;
- “O'zbek dialektologiyasi” fani o'quv dasturi mazmun mohiyatini ochib berish;
- “O'zbek dialektologiyasi” fanidan elektron o'quv moduli ishlanmasini tayyorlash;
- oliy ta'lim muassasalarida “O'zbek dialektologiyasi” fanini o'qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

“O‘zbek dialektologiyasi” fanining “O‘zbek shevalari leksikasi” mavzusi bo‘yicha elektron o‘quv modul ishlanmasi tayyorlandi.


“O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANI BO‘YICHA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI



Oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri davlat ta'lim standartlari hamda ilg'or zamonaviy ta'lim dasturlari hamda o'quv jarayoniga texnologik yondashuv asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil qilishdan iboratdir. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya zamonaviy ta'lim dasturlari asosida o'qitishni tashkillashtirish va talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, ularning darsdagi faoliyatini oshirish omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda "O'zbek dialektologiyasi" fanini o'qitishda qayd etilgan maqsadlarni amalga oshirishda muhim ta'lim texnologiyasi sifatida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg'ulotini samarali tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Fanning namunaviy dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashida ma'qullangan. Ushbu fan namunaviy dastur asosida ishlab chiqilgan ishchi dastur, har bir darsning maqsad va vazifalari, kutilayotgan natija, o'quv mashg'ulotining rejasi, o'qitishning usul va vositalari, asosiy darslik-qo'llanma,

mavzuni yoritish va mustahkamlash uchun beriladigan tarqatma materiallar, har bir dars mavzusini ochib berishga mos texnologiya va usullar to'liq berilgan shaklda taqdim etilishi kerak. Shu bilan bir qatorda har bir dars jarayoni yaxlit holda aks etgan sillabus tuzilgan bo'lib, unda darsning aniq belgilangan maqsadi, vazifa va kafolatlangan natijalari, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topishi zarur. Biz tavsiya etayotgan usul ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari, har bir mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyasidan iborat. Berilgan topshiriqlar, asosan, mustaqil fikr bildirish, berilgan vazifalarga ijodiy yondashish, fikrga o'z munosabatini ifodalash, lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga ilova sifatida keng iste'moldagi sinonimlar, antonimlar va fanning glossariysi berilgan. Dars jarayonida oldindan belgilangan va ishlab chiqilgan o'qitish usullari va texnikasidan (esse, «Charxpalak», «Xulosalash», «Fikriy hujum» («Mozgovaya ataka»), «Yalpi fikriy hujum», «Qarorlar shajarasi» («Qarorlar qabul qilish texnologiyasi»), «6x6x6» metodi, «Rasmlarni to'g'ri joylashtir», «Yumaloqlangan qor o'yini» «Glossariy», Sinkveyn, FSMU, muammoli usul, insert, suhbat-munozaralar, ven diagrammasi, grafik organayzerlar, klasster boshqalar) foydalanish usullari ko'rib chiqiladi. Ma'lumki, o'qitishning frontal, kollektiv, guruhiy, dialog kabi turli shakllaridan maqsadli foydalanish samarali natija beradi.





Demak, butun bir dars jarayoni tizimlashtirilgan va til o'rgatishda qo'llaniladigan barcha - matnni o'qish, eshitish, gapirish, yozish kabi usullarni

o‘z ichiga qamrab olgan topshiriq va mashqlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

O‘quv-uslubiy majmuaning asosiy konsepsiyasi Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda talabaning intellektual rivojlanishi va uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligini ta’minlashdir. Shu bilan birga darsga tizimli yondashuv ham muhim unsurlardan biri. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliigi, tinglash, yozish, o‘qish, gapirish shakllarini qo‘llash, undagi qismlarning o‘zaro aloqadorligi, matn ustida ishlash, grammatik mavzuni yoritish, amaliyot va nazorat. Shu bilan bir qatorda o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishi shart qilib qo‘yadi. Ta’lim jarayonidagi ishtirokchi subyektlarning psixologik birligi va o‘zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi kuchayadi. Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish talaba bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning obyektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo‘llash ta’minlanadi⁷. Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish, yani o‘quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish darsning yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

⁷ SH.Shodmonov “Iqtisodiyot fanidan ta’lim texnologiyasi”, Toshkent-2010

O‘zbek shevalari leksikasidan seminar ishlanmasi

Texnologik karta

2-mavzu: O‘zbek shevalari leksikasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
<p>1-bosqich. O‘quv mashg‘uloti-ning tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15-daqiqa)</p>	<p>1. Seminar mashg‘ulotining maqsadi va kutilayotgan natijalarni bayon etadi. 2. Talabalarni faollikka undaydi. 3. Talabalarni savol-javob, “Debat”, “Muammoli vaziyatlar”, “Klaster” hamda “Sxema” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishtiradi. 4. Kichik guruhlarni shakllantiradi. 5. Talabalarni kichik guruhlarda ishlash shartlari bilan tanishtiradi. 5. Talabalar, kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilib boradi. 6. Mashg‘ulotni tashkil etishdan kutilgan natijaga erishilganlik darajasini baholaydi. 7. Mashg‘ulotni yakunlaydi.</p>	<p>1. O‘qituvchi nutqni tinglaydilar. 2. “Debat”, “Klaster”, “Muammoli vaziyatlar” hamda “Sxema” texnologiyalarining mohiyati bilan tanishadilar va ular asosida ishlash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. 3. Kichik guruhlar tarkibida faollik ko‘rsatadilar. 4. Tengdoshlarining ijodiy ishlari bilan tanishadilar. 5. Tengdoshlari bilan bahsga kirishadilar. 6. Mavzu bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarni yanada boyitadilar.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy qicm – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55-daqiqa)</p>	<p>1. Savol-javob asosida talabalarning mavzuga oid tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish holatini baholaydi. 2. Debat asosida talabalarning shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risidagi tushunchalarga egaliklarini baholaydi. 3. Muammoli vaziyatlar asosida talabalarda faoliyatning shaxs rivojlanishidagi o‘rniga oid bilimlar shakllanganligini o‘rganadi.</p>	<p>1. O‘qituvchi tomonidan berilgan savollariga javob qaytaradilar. 2. Debatda ishtirok etish orqali shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risidagi tushunchalarga egaliklarini namoyon qiladilar. 3. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda ishtirok etib, faoliyatning shaxs rivojlanishidagi o‘rniga borasidagi fikrlarini bildiradilar. 4. Kichik guruhlarda ishlash</p>

	<p>4. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish orqali talabalarning shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari, yosh davrlari va ularning o'ziga xosliklari to'g'risidagi bilimlarini tahlil qiladi.</p> <p>5. Talabalar ishtirokida "O'zbek shevalari leksikasi" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarning yaratilishini ta'minlaydi.</p> <p>6. Test so'rovi asosida talabalarning bilimlarini tekshiradi</p>	<p>orqali shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari, yosh davrlari va ularning o'ziga xosliklari to'g'risidagi bilimlarini namoyon qiladilar.</p> <p>5. "O'zbek shevalari leksikasi" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yaratishda faol ishtirok etib, umumiy bilimlari darajasini ifodalaydilar.</p> <p>6. Test so'roviga javob qaytaradilar</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy qism (10-daqiqa)</p>	<p>1. Talabalarning mashg'ulotlardagi ishtiroklarini tahlil qiladi va baholaydi.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni xulosalaydi.</p> <p>3. Talabalarning mashg'ulot yuzasidan fikrlari bilan tanishadi.</p> <p>4. Navbatdagi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi, talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi, ularni topshiriqni baholashga oid mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>1. Mashg'ulotdagi ishtiroklari darajasidan xabardor bo'ladilar.</p> <p>2. Mashg'ulot maqsadi va kutilgan natijalarga erishishdagi shaxsiy ishtiroklarini baholaydilar..</p> <p>3. Mashg'ulotning tashkil etilishi yuzasidan fikr bildiradilar..</p> <p>4. Navbatdagi seminar mavzusidan xabardor bo'ladilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yozib oladilar</p>

SEMINAR MASHG'ULOTLARINING TEXNOLOGIK LOYIHALARI

Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
2-mavzu	O'zbek shevalari leksikasi

Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari:

2,0 ball – “a'lo” (5); 1,5 ball – “yaxshi” (4)
1,0 ball – “qoniqarli” (3); 0,5 ball – “qoniqarsiz” (2)

Mashg'ulot rejasi:

1. Xalq shevalarida umumxalq tiliga xos bo'lgan umumiy leksik qatlam.
2. Shevalarning bir-biridan leksik jihatdan farqlaydigan xususiyatlar.
3. Xalq shevalarida ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar. Tabu va evfemizmlar.
4. Dialektikal so'zlarning semantik guruhlari.
5. Shevaga xos kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.

Mashg'ulot uchun materiallar

I. Mavzu yuzasidan topshiriq

“Savol-javob” asosida mavzuga doir quyidagi savollarga javob qaytaring:

1. Adabiy til – umumxalq tilining davrlar mobaynida ishlangan, sayqal berib silliqlangan shakli.
2. Umumiy leksik qatlam va shevagagina xos bo'lgan leksik qatlam.
3. O'quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tuzatish.
4. O'zbek adabiy tili leksik me'yorlarini belgilashda shevalar roli.
5. Xalq shevalaridagi turkiy leksik qatlam va o'zlashtirilgan leksik qatlam haqida ma'lumot.

Topshiriq ustida ishlash bosqichlari

- 1) o'qituvchi mavzu yuzasidan talabalarga savollar beradi;
- 2) talabalar individual ravishda savollarga javob qaytaradilar;
- 3) talabalar javobni to'ldirish uchun qo'shimcha fikr bildirishlari mumkin;
- 4) javoblar yetarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi;
- 5) barcha savollarga yetarlicha javob olingach, jarayon yakunlanadi

II. Talabalar uchun topshiriq: Quyidagi masalalar bo'yicha debat tashkil eting

Muhokama uchun 1-masala:

1. Adabiy talaffuzni o'quvchilarga har bir darsda grammatik, imloviy va ishoraviy qoidalarga bog'lab izchil o'rgata borish;
2. O'qituvchining o'zi adabiy tilda aniq va ravon so'zlashi.


Muhokama uchun 2-masala: 1. Ona tili va adabiyot fanidan boshqa fanlarda ham o'quvchilarning adabiy tilda gapirishiga e'tibor qaratish.

2. O'quvchi nutqidagi shevaga xos bo'lgan so'zlarni aniqlab, bularning adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmasligini, hamma uchun tushunarli emasligini aniq misollar bilan tushuntirib berish.

Muhokama uchun 3-masala: 1. Adabiy tilining leksik me'yorlarini tushuntiring.

2. O'quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatish borasida ularning o'qigan badiiy asarlari haqida ma'lumot.

Topshiriqni bajarish bosqichlari



III. Talabalar uchun topshiriq
“Muammoli vaziyat” metodi asosida mavzuga doir quyidagi muammoli vaziyatlarning yechimlarini toping

1-vaziyat.

O‘zbek tili umumlug‘at tarkibining professionalizmlar hamda texnikaviy terminlar guruhini tashkil qiluvchi binokorlikga oid o‘zlashma(arabcha, forscha, ruscha) terminlarning ishlatilishi qonuniyatini aniqlang.

1. Sizningcha, *чопкэри, дэрэчэ, рэпчэ, тэкчэ, кэркэс, айна, зули, жой, эшик, ручка-тутқа, куллаб, дэрваза, портичка* terminlari qaysi tildan o‘zlashgan?
2. Quyi Qashqadaryo va Yuqori Qashqadaryo shevalarida uchraydigan binokorlikka oid terminlarni aniqlang.
3. Badiiy asarlardan binokorlikka oid terminlarni aniqlang.
4. Binokorlikka oid terminlarni leksik-semantik tahlil qiling.

2-vaziyat. 1. Hozirgi arxaik hisoblangan binokorlikka oid terminlarga misollar keltiring.

2. O‘zbek adabiy tilida leksik me‘yor sifatida faol ishlatiladigan binokorlik terminlarini aniqlang.

3. Binokorlik bilan bog‘liq kasb egalari hamda mehnat faoliyat bilan bog‘liq terminlarni aniqlang.

4. Binokorlik leksikasidagi bo‘yoq, bo‘yoqchilik bilan bog‘liq terminlarga misollar keltiring.

Topshiriq ustida ishlash bosqichlari

1) mavzu yuzasidan muammoli topshiriqni shakllantirish;

2) muammoli topshiriq mazmuni bilan talabalarni tanishtirish;

3) talabalarni kichik guruh yoki juftliklarga ajratish;

4) guruh yoki juftliklarning muammoli topshiriq yechimini topish bo'yicha amaliy faoliyatni tashkil etishlari;

5) guruh yoki juftliklar tomonidan muammoli topshiriq yuzasidan o'z yechimlarini bayon qilishlari;

6) guruhlar yoki juftliklarning yechim borasidagi fikrlarini umumlashtirish;

7) guruhlar yoki juftliklar tomonidan taqdim etilgan yechimlarning maqbullik darajasini o'rganish (ommaviy muhokama qilish yoki ekspertlar muhokamasidan o'tkazish);


8) to'g'ri, mavzuga doir yechimni aniqlash

IV. Talabalar uchun topshiriq:

“6x6x6” metodi asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring:

- 1-guruh. Dehqonchilikka xos atamalarning sxema yoki klasterlarni yaratish.
- 2-guruh. Chorvachilikka xos atamalarning sxema yoki klasterlarni yaratish.
- 3-guruh. Ov, baliqchilikka xos atamalarning sxema yoki klasterlarni yaratish.
- 4-guruh. Binokorlikka xos atamalarning sxema yoki klasterlarni yaratish.
- 5-guruh. Uy-ro'zg'or buyumlarining atamalarinin: sxema yoki klasterlarni yaratish.

Topshiriqni bajarish bosqichlari



V. Talabalar uchun topshiriq
“Ijodiy ish” metodi asosida “O‘zbek shevalari leksikasi” mavzusida shevaga xos matn tuzish.

VI. Mavzuga oid test savollariga javob bering

1. O‘zbek dialektologiyasining predmetini aniqlang:
A. O‘zbek shevalarini o‘rganadi.
V. O‘zbek dialektlarini o‘rganadi.
S. O‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan shevalarni o‘rganadi.
D. O‘zbek tilidagi sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganadi.
Ye. O‘zbek lahjalarini o‘rganadi.

2. Qaysi dialektlarda o‘rin-payt, chiqish kelishiklari va egalik affikslari orasida «n» undoshi orttiriladi?
A. Toshkent, Samarqand.
V. Xorazm, Samarqand.
S. Xorazm, Forish.
D. Xorazm, Shahrisabz.
Ye. Xorazm, Sariosiyo.

3. O'zbek adabiy tiliga berilgan to'liq ta'rifni aniqlang:

A. O'zbek adabiy tili asrlar davomida bir qolipga tushgan, silliqlashgan tildir.

V. O'zbek adabiy tili milliy tilning yuqori bosqichi bo'lib, so'z san'atkorlari tomonidan sayqal berilgan, bir qolipga solingan tildir.

S. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan barqaror, fonetik va morfologik jihatdan bir qolipga solingan milliy tilning yuqori bosqichidir.

D. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, me'yorlashgan tildir.

Ye. O'zbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatik jihatdan bir qolipga solingan, so'z ustalari tomonidan silliqlashgan tildir.

4. a, ə unlilariga berilgan to'g'ri tavsifni belgilang:

A. Umumturkiy unlilardir.

V. Orqa qator unlilardir.

S. Yuqori – tor unlilardir.

D. Barcha shevalarda uchrovchi unlilardir.

Ye. O'zlashgan unlilardir.

5. O'zbek adabiy tilning tayanch dialektlari ko'rsatilgan qatorni ko'rsating:

A. Toshkent, Farg'ona.

V. Toshkent, Andijon.

S. Toshkent, Jizzax.

D. Samarqand, Toshkent.

Ye. Farg'ona, Namangan.

6. эджэк, - аджақ affikslari qaysi lahjada qo'llanadi?

A. O'g'uz lahjasida.

V. Qorako'l shevasida.

S. O'g'uz, qipchoq lahjalarida.

D. Qipchoq lahjasida.

Ye. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasida.

7. Dialektal leksika deganda nimani tushunamiz?

A. Faqat muayyan shevaga xos bo'lgan so'zlar.

V. Bir guruh shevalarga xos bo'lgan so'zlar.

S. O'zbek adabiy tilida uchramaydigan so'zlar.

D. Umuman biror shevaga xos bo'lgan va badiiy asarlarda murojaat qilingan so'zlar.

Ye. Barcha shevalarda uchraydigan so'zlar.

8. «Diftong»ga berilgan aniq javobni belgilang.

A. Unlilarning cho‘ziq talaffuzi

V. So‘z boshida unlilar oldida artikulyatsiyasi yaqin bo‘lgan unli va undoshlarning ortirilishi.

S. So‘z boshida unlilarning ikkilanishi.

D. So‘z boshida unidan oldin undoshlarning orttirilish.

YE. So‘z boshida unlining qisqa talafuz qilinishi.

9. Adabiy tilning tayanch dialektiga to‘g‘ri baho berilgan qatorni aniqlang.

A. Adabiy tilning leksik normalarini tayanch dialekt belgilaydi.

B. Adabiy tilning eng muhim fonetik va morfologik normalari tayanch dialektdan olinadi.

S. Adabiy til to‘laligicha tayanch dialekt asosida rivojlanadi.

D. Adabiy tilning rivojlanishi tamoyillarini tayanch dialekt belgilab beradi.

YE. Tayanch dialekt adabiy tilning barcha normalarini belgilab beradi.

VII. Talabalar uchun darsdan tashqari topshiriq.

“O‘zbek shevalari leksikasi” mavzusini takrorlash. tashxis qilish jarayonining mohiyatiga bayon eting

Mavzu bo‘yicha o‘z shevasida maqollar yozish.

Kunlik matbuotdagi shevaga xos xatoliklarni aniqlash

“O‘zbek shevalari leksikasi” mavzusi bo‘yicha amaliy mashg‘ulot ishlanmasi

O‘zbek shevalari leksikasi bo‘yicha matndagi so‘zlarni tahlil qilish *Kirish.*

O‘zbek shevalari leksikasidan yozib olingan matndagi so‘zlarni qatlamlar bo‘yicha tahlil qilish

- 1** → ***Mashg‘ulotning maqsadi.*** Talabalarga o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari bo‘yicha bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatish. O‘zbek shevalari leksik tarkibini o‘z shevalari misolida namoyish qilish.
- 2** → ***Mashg‘ulot turi:*** amaliy.
- 3** → ***Mashg‘ulot tipi:*** nazariy va amaliy bilimlarni takomillashtirish.
- 4** → ***Mashg‘ulot metodi:*** ijodiy, jonli muloqot.
- 5** → ***Mashg‘ulot jihozlari:*** O‘zbek shevalari lug‘ati. O‘z shevalaridan to‘plagan leksik birliklar.

Mashg'ulotning borishi

Tashkiliy qism. Davomat aniqlanadi va talabalarning mashg'ulotga tayyorgarligi tekshiriladi.

Mashg'ulot rejasi:

1. Adabiy til va sheva leksikasi farqlarini takrorlash.
2. Matndagi soʻzlarning ham adabiy til, ham shevaga aloqadorligini va farqlarini aniqlash.
3. Matnda faqat muayyan shevalarda qoʻllanadigan soʻzlar va ularning maʼnosini aniqlash.
4. Kuchli fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlarni aniqlash va ularni etimologik tahlil qilish.
5. Talabalar bilimini baholash.

Tayanch tushunchalar: leksika, semantika, etimologiya, lugʻat tarkibi, lugʻat qatlami, lugʻat tarkibining mavzuiy guruhlari va b.

Amaliy mashg'ulotdan topshiriqlar.

1. Qashqadaryo viloyati shevalari leksikasining boy materiallarini toʻplash va ularni muayyan mavzuiy guruhlar boʻyicha tasnif qilish ushbu lugʻaviy tizimning nihoyatda xilma-xil va koʻp qirrali ekanligini koʻrsatdi. Bu sheva aholisi tilida isteʼmolda boʻlgan hunarmandchilikka, kasb-korga, qishloq xoʻjaligiga oid terminlar, kishilarning kundalik turmushi, falsafiy-diniy qarashlariga oid soʻzlar, qadimiy madaniyati, maʼnaviyatini ifoda qiluvchi soʻzlar bundan dalolat berib turibdi.

2. Xalq shevalari leksikasida ichki (oʻz) va tashqi (oʻzga) omillarning taʼsiri mahalliy aholi tiliga turli tillardan ehtiyoj talabiga koʻra maʼlum miqdorda soʻzlarning oʻzlashishiga va shevalar leksikasida tarixiy etimologik lugʻaviy qatlamlarning yuzaga kelishiga sabab boʻlgan, Qashqadaryo viloyati shevalari leksik tarkibida turkiy soʻzlar qatlami, fors-tojikcha soʻzlar qatlami, arabcha

soʻzlar qatlami, ruscha-baynalmilal soʻzlar qatlami lugʻaviy unsurlar mavjudligini aniqlash.

3. Shevalararo leksik farqlar: a) oʻzbek adabiy tili va boshqa oʻzbek shevalarida uchramaydigan soʻzlar; b) shakl jihatidan ushbu shevagagina xos soʻzlar; v) maʼno jihatidan ushbu shevaga xos soʻzlar; g) maʼnosi oʻxshash, ammo shaklan farqlanuvchi soʻzlar; d) shakli bir xil, ammo maʼno jihatdan farqli soʻzlar; ye) biror maʼnosi bilan adabiy til va oʻzga shevalarda qoʻllanishidan farqlanuvchi koʻp maʼnoli soʻzlar mavjudligini koʻrsating.

4. Xalq shevalari leksikasida koʻp maʼnoli soʻzlar, maʼnosi oʻzgargan soʻzlar, shaklan va maʼno jihatidan oʻxshash va farqli soʻzlarni tadqiq qilish hamda sinonim, omonim va antonim aniqlab misollar keltirish;

5. Oʻzbek shevalariga xos boʻlgan tabu va evfemizmlarini aniqlash, talaffuzi noqulay yoki tilga olish xosiyatsiz, noqulay deb hisoblangan leksemalar oʻrniga muqobil soʻzlarni topib ishlatish mahorati, ular dialektal nutqning beozor (yumshoq) boʻlishini taʼminlashini misollar bilan koʻrsating.

III. Talabalar uchun topshiriq

Quyidagi topshiriqlar boʻyicha “Rotatsiya” metodi asosida taʼlimning amaliy mashgʻulot shakldagi darslarning mohiyatini yoriting:

1-guruh: Qashqadaryo viloyati shevalari leksikasining hunarmandchilikka, kasb-korga, qishloq xoʻjaligiga oid terminlar, kishilarning kundalik turmushi, falsafiy-diniy qarashlariga oid soʻzlarning mohiyatini yoriting.

2-rypyx: Qashqadaryo viloyati shevalari leksik tarkibida turkiy soʻzlar qatlami, fors-tojikcha soʻzlar qatlami, arabcha soʻzlar qatlami, ruscha-baynalmilal soʻzlar qatlami lugʻaviy unsurlar mavjudligini aniqlash.

3-guruh: shevalararo leksik farqlar: omonim, sinonim, antonim, koʻp maʼnoli soʻzlarning muhim jihatlarini koʻrsating.

4-guruh: Dialektikal soʻzlarning semantik guruhlarini aniqlang.

5-guruh: Oʻzbek shevalariga xos boʻlgan tabu va evfemizmlarini aniqlang.

Mustaqil topshiriqlar. “Kim- tez topar”

1-topshiriq:

Qarluq lahjasi.

bYvæk
ʔshkɔm,
tuxum
qalamɾɣ,
pəmiɫɔɾɣ
chumɔɫ
baxmal,

O`g`uz lahjasi.

chaqaloq bəvək
vələsh
yimirtə
gəɾɾmdɔɾɣ
pamadar
qarɾindjə
barqɾt,

Qipchoq lahjasi

bəvək
vayish
məyək
burch
pəmiɫɔɾɣ
chumalı
baxmal

ketma-ketlikni davom ettiring.

2-topshiriq:

O`zbek shevalarida uchraydigan shakl jihatidan o`xshash bo`lishlariga qaramay, shevalararo boshqa–boshqa ma`nolarda ishlatiladi so`zlar. Masalan: **arava** so`zi Toshkent shevasida - *arava qismining nomi*; Farg`ona shevasida **sh ɔɫ**,...

3-topshiriq: Qarluq lahjasi; Qipchoq; O`g`uzlahjalarda ma`nodosh so`zlar qatorini tuzing.

O`zbek tilida bo`lgani kabi , uning lahja va shevalarida ham ma`nodosh so`zlar nihoyatda ko`p.Lahja va shevalardagi ayrim so`zlar esa adabiy tilimizning leksik qatlamini to`ldirish va boyitish uchun xizmat qiladi.Masalan, hozirgi adabiy tilimizdagi izlamoq, qidirmoq, axtarmoq, istamoq sinonimik qatorlaridagi so`zlar turli sheva materiallaridan olinganligini isbot qilish qiyin emas.

O`zbek shevalari ham ma`nodosh so`zlarning ko`pligi bilan ajralib turadi.Bu shevalarda ba`zi bir ma`nodosh so`zlar adabiy tildagiga nisbatan ko`proq ko`rinishlarga ega bo`ladi:

Qipchoq lahjasida : tuzuv || tuziv || durɾs || yaxshɾ || myqtay || ədjəp || ədjəptəvir || əvlə || qyamat || binəyi (yaxshi).

Qarluq–chigil–uyg`ur lahjasida : morcha (Samarqand) , chuməɫ (Toshkent) , chuməɫk (Farg`ona).

O`g`uz lahjasida: buchimi , sɔɫɔɫti , gərunishi , simmɔti , silɔɫti , qɔmati.

O'zbek tili lahja va shevalarida shakldosh so'zlarning o'zaro ma'nolarini farqlash ularning vujudga kelishi va ma'nolari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundagi o'ziga xos xususiyatlardan biri shuki, shevalarda u yoki bu omonim adabiy tildagiga nisbatan ko'proq ma'nolarga ega. Masalan, ich so'zi adabiy tilda 2 xil ma'noda qo'llansa, qipchoq, shevalarida 4 xil ma'noda keladi. *Ich* (uch – son), *ich* (biror narsaning ichi), *ich* (ichmoq), *ich* (aʼzo, qorin maʼnosida).

Samarqand viloyati qipchoq lahjasida Fozil Yoʻldosh oʻgʻlidan keltirilgan tuyuq-toʻrtlik:

Qoʻlyongdan keguncha chыqar yaxshi at,

Yaxshылык qы, balam djamanlyqды at.

Nəsiyətım yɔt qыbal, parzantым

Yalgʻыз yursə nam chыqarmas yaxshi at.

Yuqoridagi toʻrtlikda at soʻzlari ism, harakat, hayvon maʼnolarida kelyapti.

Lahja va shevalarda zid maʼnoli soʻzlar ham maʼlum oʻrin egallaydi va u qarama–qarshi tushunchalar birligini ifoda etish bilan uslubiy vosita sifatida qoʻllanadi.

Qorluq – chigil – uygʻur laxchasida: yəxshы-yɔmɔn; uzun – qʻsqə; ɔz-kop; xursandlyq-xəpəlyk.

Oʻgʻuz lahjasida: ɔq – qara, yaxshы – yaman, alyс – yaqын, ully – gendjə, qatы – yɔsh.

Qipchoq lahjasida: kəttə – kichi, bələn – pəs, achchы – chuchchi, alyс – djaqын, kunchыg`ыsh – kunbatыsh.

4-topshiriq: Koʻp maʼnolilik oʻzbek tili leksikasining oʻziga xos belgilarini aniqlang. Asosan , oʻzbekcha soʻzlar koʻp maʼnolilik xususiyatiga ega boʻladi. Masalan, bash, koz, ayaq, qanat, bəl, til, murun, ləp, v.h. Masalan, qipchoq shevalarida: əziyem , bash dep kədinı kətərip djurgənəkən–də. Uni ekinchi birgətkə bashlyq qыр qoyды: bir bash djuzum. U ishti kəzini bilədi.

Yoki til soʻzini olib koʻraylik:

1. Kishi yoki hayvon organizmining nomi

2. II shaxs birlik, shakldosh buyruq fe'li.
3. ТЫІ ТҖРЪШ – kelishish.
4. ТЫІНЪ БЫІЪШ – biror sohani yaxshi , mukammal bilish.

Tabu–taqiq, qo'l tekkizib bo'lmaydigan ma'noni bildiradi. Bu ayrim so'zlarni aytmasdan uning o'rniga boshqa so'zlarni qo'llashdir. Ilon so'zi o'rniga arg'amchi , qamchi–dasta, chilvir , gilbir deyishgan.

Kelinlar erini bayim, enamning uli deb chaqiradi.

Evfemizm so'zining lug'aviy ma'nosi yaxshi gapiraman , xushmuomalalik bilan gapiraman demakdir. Bu ayrim qo'polroq va aytilishi noqulayroq so'zlarni silliqlab gapirishdir. O'ldi so'zi o'rniga – djɔnъ uzildi, djɔn berdi , qazo qылды, dunyadən өттѳ. Kasalni tabы djoq , mazasi djoq . Kuyovini dɔstыg`dash , xotini turmush ortag`ы , v.h.

5-topshiriq: Dialektal so'zlarning semantik guruhlarini aniqlash. Masalan, ularning ayrimlarini keltiramiz:

Dehqonchilikka xos atamalar:

Oq arьq , shaq arьq , kərək , chYvьmə , ləppək , qьzьlchə , bug`doy || biydəy , djoxɔɔɔ , pətmьldɔɔ–pətmədjɔn || pətmədjɔn , qalamрьr – gərmdɔri – burch.

Chorvachilikka xos atamalar:

ɔt || at , sьgьr || siyir – ьnək || ьney. Bьzɔg` – gəsələ , qoy, yechkь.

Ov, baliqchilikka xos atamalar:

Tor , tuzɔq, qarmaq, || qalmɔq, sanchыq, laqqa, chortɔn || chortan balыq.

Binokorlikka xos atamalar:

Uy || oy , ravaq , mərь , pəydevɔr , sarrɔb , sinch , kəshək , ɔqь–vəssə,ɔstənə–bɔsag`a , dəhlьz , yөлək.

Uy–ro`zg`or buyumlarining atamalari:

Qɔɔɔn || qazɔn , ɔvɔq || tabaq , ləgən || ləgət , og`ьr–keli–so:qь , pəqьr–satil–chelək, chrpqь , teshə, yəkɔndɔz , yəstuk–bьlьsh.

Uyga vazifa:

1. O'zbek xalq shevalari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash.
- Adabiyotlar : 1, 2, 7, 10

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbek shevalari morfologiyasi.t.,1984.
2. O‘zbek shevalari leksikasi. T., 1966.
3. O‘zbek shevalari leksikasi. T., fan, 1991.
4. Djurayev A.B. teoreticheskiyeosnovi arelnogo issledovaniya uzbekoyazichnogo massiva. T., 1991.
5. Rajabov N.O‘zbek shevashunosligi. T., O‘qituvchi, 1996.
6. Aliyev A.Y., Nazarov K.N. O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma.T., 1976.
7. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T., “Fan” 1981.
8. Shoimova N. Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi. Qarshi, Nasaf, 2000.
9. Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalari leksikasining qiyosiy tadqiqi.T., Fan.2005.
10. M.Q. Begaliyev. O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi.T., Iqtisod-moliya.2007.

Elektron ta’lim resurslari

www.turk.dili.google.com.tr

www.dergimiz.com.

www.altinmiras.com.

www.thinsan.com.

«O‘zbek dialektologiyasi» fanidan mustaqil ishlarishlanmasi.

Mustaqil ta’lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning o‘quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- internetdan foydalanish;

- masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

«O'zbek dialektologiyasi» fanidan mustaqil ta'limning mazmuni vahajmi

№	Mavzular	Ajrat. soat
1.	«O'zbek dialektologiyasi» fanining maqsadi va vazifalari. O'zbek shevalarini o'rganish metodlari	4
2.	Lingvistik geografiya.Lingvistik geografiya tamoyillari	4
3.	O'zbek shevalarining morfologik xususiyatlari	4
4.	O'zbek shevalarining sintaksisi	4
5.	O'zbek shevalari leksikasi	4
6.	O'zbek adabiy tili va dialektlari	4
7.	O'zbek shevalari tasnifi	4
8.	Qipchoq lahjasi	6
9.	Qarluq-chigil uyg'ur lahjasi	4
10.	O'g'uz lahjasi	4
	Jami:	42

O'zbek shevalari leksikasi

Topshiriq variantlari:

1. O'zbek shevalarining lug'at tarkibi.
2. Shevalarga xos bo'lgan so'zlarning semantik xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Dialektal so'z - ma'lum shevagagina xos bo'lgan so'z.

Shevalarning lug'at tarkibi - ma'lum bir shevadagi barcha so'zlar yig'indisi.

Jargon - ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos so'zlari. Masalan, tartibot, savdo xodimlari.

Leksik qatlam - tildagi (shevadagi) tub va o'zlashgan so'zlarning guruhlari.

Adabiyotlar:

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

A.1; A.2;

Qo'shimcha adabiyotlar:

Q.1; Q.2; Q.3; Q.4; Q.6; Q.7; Q.8;

Elektron ta'lim resurslari:www.altinmiras.com

GLOSSARIY (ASOSIY DIALEKTOLOGIK TUSHUNCHALAR LUG'ATI)

1. **Adabiy til** – meyorlashgan til.
2. **Adabiy tilning shakllari** – adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllari.
3. **Assimilyatsiya** – unli va undoshlarning o‘xshab ketishi yoki bir-birlariga singishi.
4. **Atlas** – sheva, dialekt, lahjalarni turli ranglar va shartli belgilarda yaxlit idrok etish uchun xizmat qiladigan o‘quv quroli.
5. **Bitishuv** – ikki mustaqil so‘zning o‘zaro aloqaga kirishuvi.
6. **Boshqaruv** – hokim so‘zning talabiga ko‘ra tobe so‘zning tushum va vositali kelishiklarda hamda ko‘makchilar bilan qo‘llanishi asosida aloqaga kirishuvi.
7. **Velyarizatsiya** – undoshlarning qattiqlashishi.
8. **Vokalizm** – unlilar tizimi.
9. **Fan** – fikrni ifoda qiluvchi eng kichik til birligi.
10. **Gibridizatsiya** – qardosh bo‘lmagan til va shevalarning aralashib ketishi.
11. **Dialekt** – o‘zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.
12. **Diakritik belgi** – harflarga qo‘shimcha ravishda qo‘yiladigan belgilar, ishoralar.
13. **Dialektolog** – shevashunos, shevani o‘rganuvchi olim.
14. **Dialektal so‘z** – ma’lum shevagagina xos bo‘lgan so‘z.
15. **Dissimilyatsiya** – undosh tovushlardagi noo‘xshashlik.
16. **Diftong va diftongoid** – bir tovushda ikkinchi bir tovush xususiyatlarining bo‘lishi va shunday tovush.
17. **Jargon** – ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos so‘zlari.
18. **Izoglassa** – til, sheva faktlarining teng kelishi holatlari.
19. **Inversiya** – gap bo‘laklarining odatdagi tartibining buzilishi va uning gap bo‘laklarida gapdagi mavqeiga ta’sir yetmasligi.
20. **Indifferent** – oraliq tovush.

21. **Konsonantizm** – undoshlar.
22. **Kontrast unli** – old qator va orqa qator xususiyatlariga ko‘ra zidlangan unlilar.
23. **Labial singarmonizm** – lablangan unlilar uyg‘unlashuvi.
24. **Lahja**– shakllanishi jihatidan umumiy tarixga ega bo‘lgan dialektlar jami.
25. **Lingvial singarmonizm** – old qator va orqa qator unlilar uyg‘unlashuvi.
26. **Leksik qatlam** – tildagi(shevadagi) tub va o‘zlashgan so‘zlarning guruhlari.
27. **Leksikologiyaning obykti** -tilning lug‘at boyligidir. Leksikologiyaning predmeti – lug‘at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari bilan aloqasini tadqiq etishdan iborat.
28. **Leksikologiyaning turlari:** 1) *Umumiy leksikologiya;* 2) *xususiy leksikologiya. Xususiy leksikologiya o‘z navbatida tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) leksikologiyaga bo‘linadi.* 3) *Qiyosiy leksikologiya.*
29. **Лексикологияқуйидаги bo‘limlarni qamrab oladi:** 1) semasiologiya; 2) leksikografiya; 3) onomasiologiya; 4) etimologiya; 5) frazeologiya; 6) onomastika; 7) etnonimika; 8) terminologiya.
30. **Leksema** – shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, jamiyat a‘zolari uchun umumiy, tayyor, majburiy bo‘lib, mustaqil anglanish va qo‘llanish tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlikdir.
31. **Leksik ma’noning semantik tarkibi** -atash va ifoda semalaridan iborat.
32. **Leksik ma’noning kengayishidau** ifoda etgan denotat o‘z hajmini yoki xilini oshira boradi va uni bildirgan leksik ma’no doirasi ham kengaya boradi, leksik ma’noning kengayish jarayoni kechadi.
33. **Leksik ma’noning torayishidau** ifoda etgan denotatning ma’lum qismlari farqlanib, so‘z leksik ma’nosida torayish kechadi.
34. **Lingvistik geografiya** – o‘zbek shevalarini o‘rganishning bir metodi, shevalardagi til faktlarini maxsus o‘rganadigan soha.
35. **Metisatsiya** –qardosh tillar va shevalar chatishuvi.
36. **Moslashuv** – qaratqich va qaralmish munosabati.
37. **Palatalizatsiya**– undoshlarning yumshoqlashishi.

38. **Tavsifiy (sinxron) metod** – shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.
39. **Tayanch dialekt** – adabiy tilga biror jihatdan, ya'ni fonetik, morfologik jihatdan asos bo'ladigan dialekt, sheva.
40. **Tovush mosligi** – so'z ma'nosiga putur yetkazmaydigan tovush o'zgarishlari.
41. **Transkripsiya** – yozuvning maxsus turi.
42. **Transliteratsiya** – matnni bir yozuv tizimidan ikkinchisiga ko'chirish, masalan, kirilldan lotin yozuviga.
43. **Transkripsion belgi** - har bir nutq tovushi uchun qo'llanadigan harf.
44. **Singarmonizm** – unlilar uyg'unlashuvi.
45. **So'z birikmasi** – ikki mustaqil so'zning o'zaro aloqaga kirishuvi.
46. **Semema**- leksemaning mazmun tomoni (leksik ma'no). Semema esa *semalardan* tashkil topadi.
47. **Sema** лексик маъно (семема)ни ташкил қилувчи мазмуний қисмлар ва маъно қирраларидир.
48. **Semiotika**-turli-tuman belgilar sistemasining umumiy xususiyatlarini o'rganuvchi fandır.
49. **Sinekdoxa** - so'z ma'lum leksik ma'nosining denotati bilan boshqa bir denotat biri ikkinchisiga bo'lak yoki aksincha butun bo'lish munosabatiga egaligi, uni ham ataganligi orqasida ko'chma ma'no yuzaga kelishidir.
50. **Sinonimlar** - yozilishi ham, talaffuzi ham boshqa-boshqa bo'lib, umumlashgan, bir tushunchani ifodalaydigan, lekin ma'no nozikliklari jihatidan bir-biridan birmuncha farq qiladigan so'zlardir.
51. **Sintagmatik munosabat** til birliklarining yonma–yon joylashish (qo'shnichilik) munosabatidir.
52. **Sistema** o'zaro bog'liqlikdagi elementlar majmuasidan iborat bo'lib, bu majmua yaxlitlikni tashkil qiladi va undagi ishtirokchilarning har biri alohida hamda o'zaro munosabatda tavsiflanadilar. Til – sistemalar sistemasi hisoblandi, chunki u ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega.
53. **Statistik tahlil metodi** jahon tilshunosligi amaliyotda eng faol ishlatiladigan metodlardan biri bo'lib, lisoniy birliklarning-til va nutq

birliklarining takror va takror qo'llanilishini, tez-tez ishlatilish darajasini, chastotasini, tarqalish doirasini belgilaydi. Ushbu metod lisoniy birliklarning, masalan, tovush, bo'g'in, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gap kabilarning ishlatilish miqdorini, arifmetik sonini aniqlash uchun xizmat qiladi.

54.**Struktura**ushbu sistemadagi elementlarning munosabatlari asosida yuzaga keladigan tuzilmadir.

55.**Substansiya (mohiyat)** – ichki, forma (shakl) – tashki tomonlar sifatida falsafadagi mohiyat va hodisaning tilda mazmun va shakl sifatida talqin qilinishi. Shakl (forma, hodisa) mazmun (mohiyat, substansiya) bilan dialektik bog'liq.

56.**Segment birliklar** – so'z yoki morfema tarkibida gorizontal chiziq bo'ylab birin-ketin keladigan birliklar: nutq tovushi, bo'g'in, fonetik so'z, takt, fraza.

57.**Supersegment birliklar** – urg'u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalardir, ular so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo'lishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

58.**So'z** - leksik va grammatik ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlik.

59.**So'z leksik ma'nosi taraqqiyoti** uch ko'rinishga ega: 1) leksik ma'noning kengayishi va torayishi; 2) so'z leksik ma'nosining ko'chma ma'no yuzaga keltirishi; 3) evfemizm va disfemizm.

60.**Tasviriy metod**muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o'rnini, qo'llanilishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

61.**Tafakkur** - o'ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati. Inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir.

62. **Tipologiya** tilshunoslikning tillarini tipologik tasnif qilish prinsipi va usullarini o'rganuvchi bo'limidir.
63. **Tipologik metod** turli qarindosh (o'zaro genetik bog'liq) va qarindosh bo'lmagan (o'zaro genetik bog'lanmagan) til oilalariga tegishli bo'lgan tillarni qiyoslash asosida o'rganadi. Ushbu xususiyatiga ko'ra mazkur metod faqat bir til sistemasiga, ya'ni qarindosh tillar oilasiga kiruvchi tillarni qiyosiy tadqiq qiluvchi, «baholovchi» qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi.
64. **Tipologik tasnif** - tillarning turiga ko'ra tasnif qilish tipologik tasnif deb ataladi.
65. **Til** - imkoniyat sifatida aloqa-aralashuv, fikr almashuv quroli. Til va jamiyat uzviy bog'liqdir. Til – tabiiy, ruhiy, ilohiy emas, balki ijtimoiy hodisadir.
66. **Unlilar cho'ziqligi** – unlilarning boshqa tovush ta'sirida va uning ta'sirisiz cho'ziqligi.
67. **Fonetik qonuniyat** – o'zbek shevalarida amal qiladigan tovush talaffuzi va u bilan bog'liq holda yuz beradigan fonetik hodisalar.
68. **Fonetik transkripsiya** – konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan ishoralar tizimi.
69. **Fonematik transkripsiya** – tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi.
70. **Sheva** – o'zbek tilining kichik territoriyadagi muomala vositasi.
71. **Shevalarni tasnif qilish** – shevalardagi o'xshash va noo'xshash xususiyatlar.
72. **Shevalarning lug'at tarkibi** – ma'lum bir shevadagi barcha so'zlar yig'indisi.
73. **O'zbek dialektologiyasi** – o'zbek shevalarini ilmiy ravishda o'rganadigan fan.
74. **O'lik til** – muomaladan chiqqan til.
75. **O'g'uz lahjasi** – o'zbek tilining o'g'uz urug'i va qabilalari negizida shakllangan sheva hamda dialektlar uyushmasi.
76. **Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi** – o'zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug'-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar uyushmasi.

77. Qiyosiy-tarixiy metod – tillarni ham tarixiy taraqqiyot ham boshqa yondosh tillarga qiyoslab o‘rganish metodi. Bu metoddan shevalarni o‘rganishda ham foydalaniladi.

78. Qipchoq lahjasi – o‘zbek tilining asosan qipchoq urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva hamda dialektlar uyushmasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

(Darslik, o‘quv qo‘llanma va maqolalar)

1. Абдуллаев Ф. А. Фонетика Хорезмских говоров. Т., 1962.
2. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. Т., Фан, 1978. 109-11-бетлар.
3. Абдуллаев Н. Фонетические особенности узбекских говоров Северо-Западного Афганистана. АКД.Т.,1982. 18 с.
4. Абдуллаева Д. Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари. АКД. Т., 1999.
5. Абдурахмонов Д. Бешкент район топонимикасига оид материаллар // Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан, 1966. 383-401-бетлар.
6. Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан методик кўрсатма. Т., 1980. 8-10-бетлар.
7. Алиева А. Наманганская группа говоров узбекского языка. АДД. Т.,1975. 92 с.
8. Алиев А.Ю., Назаров К.Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. Т., 1976.
9. Алмаматов Т. Вспомогательные глаголы в узбекских народных говорах. АКД.Т.,1978.
10. Алмуродов Х. Морфология узбекских говоров Низовья Сурхандарьи (имя и глагол). АКД.Т.,1982. 18 с.
11. Амансариев В. Туркман диалектологияси. Ашгабат, 1970.
12. Бегалиев.М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси.Т., Iqtisod-Moliya, 2007.126 бет.
13. Бобожонов Ю.Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. АКД.Т.,1997. 23 с.

14. Буранов М. Термины Животноводства в узбекских говорах Каракалпакий. АКД.Т.,1972. 30 с.
15. Вежилов А.Л. Турецкая диалектология. Изд. МГУ., 1973.
16. Взаимодействие лингвистических ареалов. Л.,1980.
17. Джураев А. Б. Морфология Узбекских говоров Верхней Кашкадарьи и в ареальном освещении. АКД. М.,1986. 16 с.
18. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан,1966.160-292-бетлар
19. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. АДД. М.,1991. 38 с.
20. Джурабоев А. Названия свадебных церемоний в узб. языка(на материале андижанской группа говоров). АКД.Т., 1971. 23 с.
21. Джураева Х. Фонетика–морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этнические название «турк – калтатый» АКД.Т.,1975.
22. Дадахонова Т.Т. Чеварлик лексикасида баъзи бир диалектал хусусиятлари // ЎТА.Т.,1962.3-сон.12-19-бетлар.
23. Данияров Х. Восточно-кыпчакские говоры и их участие в развитии узбекского литературного языка. АДД. Т., 1977. 38-40-бетлар.
24. Жуманазаров Ю. Ўзбек тилининг жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик тузилиши. Т., Фан. 1976. 134 бет.
25. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари.Т.,1963.
26. Ибрагимов Ю. Морфология Ходжелийско-Кунградских говоров узбекского языка. АКД.Т.,1974. 33 с.
27. Иброҳимов С.И. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. Т., 1967.
28. Аҳмад Ишаев. Шевалар луғатиға киритиладиган сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988 йил. 2-сон.37-42-бетлар.
29. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси.Т.,Фан, 1990. 140 б.
30. Кудратов Т. Переходные говоров узбекского языка. АКД.Т.,1968. 34 с.

31. Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар. Андижон тип шеваларда қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши (қиёсий-этимологик тарзда). Т., 2009. 240 б.
32. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. Т., Фан, 1969.
33. Мирзаев Н. Этнографическая лексика узбекского языка (на материалах узбекских говоров Кашкадаринской области). АКД. 1971. 22 с.
34. Муродова Н. Навоий вилояти ўзбек шевалари лексикаси // ЎТА. Т., 2000. 5-сон. 61-63-бетлар.
35. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. Т., Фан, 2005.
36. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси. Т., Фан, 1983. 166 б.
37. Мухамеджанов К. Туркестанский говор узбекского языка. АКД. Т., 1970. 22 с.
38. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казахстана. АДД. Т., 1988. 44 с.
39. Назаров К. Шимолий Ўзбек шевалари ҳақида // Ўзбек филологияси масалалари. Т., 1970.
40. Назаров К., Гуломов Ё. Ўзбек диалектологияси. Т., Университет, 1993. 62 б.
41. Назаров Н. Афғонистон ўзбеклари. Т., 2011. 126 бет.
42. Раджапов Н. Морфологическая структура имени и глагола в узбекских народных говорах. АДД. Т., 1986. 51 с.
43. Ражабов Н. Ўзбек тилида феъл шакллариининг алмашилиб қўлланилиши. Т., 1991.
44. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. Т., Ўқитувчи, 1996.
45. Рахимов С. Лексика узбекских говоров Сурхандаринской области. АКД. Т., 1974. 30 с.
46. Рахимов Р. Сурхондарё ўзбек шеваларининг таснифи масаласи // ЎТА. Т., 1985. 61-65-бетлар.

47. Рахимов Р. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. Денов, 1993.
48. Рахимова К. Узбекские говоры Туркменской ССР. АКД. Т., 1985. 20 с.
49. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Т., 1962.
50. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Т., Ўқитувчи, 1978.
51. Русская диалектология. М., "Высшая школа" 1990. 147-171-бетлар.
52. Саидова М. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. АКД. Т., 1995. 23 б.
53. Тезисы докладов. VI Регионального совещания по диалектологии тюркских языков. Т., 1970. 44 с.
54. Туракулов А. Лексика Кокандской группы говоров. АКД. Т., 1971. 28 с.
55. Туропова М. Ўзбек шевалари синтаксиси. Т., Фан, 1984.
56. Тўйчибоев Б., Ширинов С., Қашқирли Қ. Туганмас бойликлар булоғи. Т., Ўқитувчи, 1991. 196-бет.
57. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Т., 2004.
58. Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зомин сўзлиги. Т., 2008. 222 бет.
59. Ҳасанов Б. Исследование узбекских говоров типа тюрк-барлас. АКД. Т., 1980. 20 с.
60. Хамраев Х. Основные фонетические особенности кашкадаринских говоров узбекского языка. АКД. Т., 1973. 24 с.
61. Хусаинова З. Ономазиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материале). АКД. Т., 1984. 20 с.
62. Шералиев Э. Лексика узбекских говоров северо-восточного Таджикистана. АКД. Т., 1974.
63. Шералиев Э. Ошоба шеvasи // ЎТА. 1. 1980.
64. Шерматов А. Қашқадарё ўзбек шевалари атласининг баъзи масалалари. Янги тадқиқотлар. Т., 1971.

65. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё Ўзбек шеваларини карталаштириш тажрибасидан. ЎТА, 4. Т., 1970.
66. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё Ўзбек шевалари. Т., 1972.
67. Шерматов А. Ўзбек халқ шеваларидан материаллар.Т.,1975.
68. Шерматов А. Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари.Т.,Фан,1978.
69. Шерматов А.Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари атласи.Т.,Фан,1979.
70. Шерматов А. Лингвистик география нима? Т., Фан, 1980.
71. Шоабдурахмонов Ш. Ш. Ўзбек тилининг диалектологик атласи. ЎТА, 3.Т., 1969.
72. Шоабдурахмонов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. Т., Фан, 1983.
73. Шоимова Н. И. Ўрта Қашқадарё "же" ловчи қипчоқ шевалари лексикаси. ФФНА. Т., 1999. 25 бет.
74. Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. Қарши, Насаф, 2000.140 б.
75. Шоиноятова М. Падежи в узбекских говорах. АКД.Т.,1973. 24 с.
76. Холмедова З. Қарноқ шевасидаги луғавий-маъновий категориялар // Тил ва адабиёт таълими.2004.4-сони. 27-29-б.
77. Эгамов В. Ўзбек тилининг Ғаллаорол шевалари. Самарқанд. 1970.
78. Эназаров Т. Ўзбек диалектологияси фанидан амалиёт. Т., Университет, 1996.
79. Эназаров Т. Ўзбек диалектологияси. Маъруза матни.Т., 2000.
80. Юлдашев А. Морфологические особенности манкентского говора узбекского языка. АКД. Т.,1981. 21 с.
81. Ўзбек шевалари морфологияси. Т.,1984.
82. Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан,1966.
83. Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан,1991.
84. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм.Т.,1960.

85. Ўринбоев Б., Жўраев Х. Ўзбек тили турк-калтатой шевасининг грамматик хусусиятлари. Т., Фан, 1985. 76 бет.

86. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги чорвачилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Т., Фан. 2011. 95 бет.